

## **BOSHLANG'ICH MAKTABDAGI O'QITISHNING TA'LIMIY-TARBIYAVIY HAMDA KAMOL TOPSHIRISH VAZIFALARI**

Yusupova Sevara Davletiyar qizi

Boshlang'ich ta'lism fakulteti, 2-G Kurs Boshlang'ich ta'lism

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

### **Annotatsiya:**

O'zbekistonda boshlang'ich ta'lism va ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lism jarayonini aniq vositalar yordamida samarali tashkil etish lozimligini taqozo etadi. Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lism jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lism sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. O'zbekistonda qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlash bugungi kunda pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lism sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashishning usullariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lism, o'quvchi, zamonaviy ta'lism, pedagog, faraz, interfaol metod, pedagogik nazariya, "Aqliy hujum" metodi

Boshlang'ich maktabdagagi o'qitishning ta'limiyl funktsiyasi mazmuni predmetlari bo'yicha o'quv dasturida qayd qilingan bilimlar ko'nikmalari va malakalarining majmuidan iborat bo'ladi. Ana shu bilimlarni o'zlashtirish I, II, III sinfni ,boshlang'ich maktab va hokazolarni bitirgach, muayyan darajadagi ma'lumotlilikni ta'minlaydi.

O'qitishning ta'limiyl funktsiyasini amalga oshirishi jarayoni bilimlarning va ular asosida shakllanadigan ko'nikmalar hamda malakalarining xarakteriga bog'liqdir. Bolalarning o'zlariga mos qonuniyatlar, tushunchalar, qoidalar va ta'riflarini o'zlashtirishi bilan bog'liq nazariy bilimlar o'zlarining bilish faoliyatini tashkil etishning ma'lum shakllarini talab qiladi. Bunda fikrlashning mavhum shakllari ustun bo'ladi. O'quvchi muhim belgilarni va asosiy qoidalarni ajrata bilishi kerak. Unga bilimlardagi tizimni topishni o'rgatish lozim, ana shundagina yodlangan qoidalar va ta'riflar yuzaki bo'lib qolmaydi. O'quvchi nazariyani tushunarli faktlar, shaxsiy tajriba, amaliy ishlar asosida o'zlashtiradi. Lekin bilish faoliyatining samaradorligi qanday faktlar va misollarni eslab qolgani bilan emas, balki ana shu faktlar asosida tushunchaning muhim belgilarini qanchalik ajrata olgani, ta'riflar va qoidalarni anglagani bilan belgilanadi. Masalan, III sinfdagi ona tili darsida o'qituvchi bolalarni so'z turkumlaridan «Ot» bilan tanishtiradi. O'quvchi ikkita belgi: so'z predmetni bildirishi va so'z (kim? nima? degan) savollarga javob bo'lishi asosida ana shu so'z turkumini ajratadi. Bunda

asosiy vazifa mazkur muhim belgilar bilan ish ko'ra olishdir. Shu tariqa bolaning ongida nazariya vujudga keladi. O'quvchi uchun faqat, aytaylik, «daraxt», «uy», «traktor» kabi xususan otga taalluqli so'zlardan misollar keltirish muhim emas, balki eng muhimi o'rganilgan ikkita belgi asosida mana shu so'zlar nima uchun otga taalluqli ekanini tushuntira olishdir. Ba'zan o'quvchi darsda faollik ko'rsatadi. Predmetni bildiradigan so'zlardan har xil misollar keltiradi. U ana shu so'z turkumini yaxshi o'zlashtirgandek tuyuladi. Lekin uning javoblari nazariy jihatdan dastlabki bilimlar va ilgari ajratilgan ikkita belgi asosida so'zlarni tahlil qilishning natijasi emas, balki o'rtoqlariga taqlid qilishdan iborat bo'lishi mumkin. Maktablarda faoliyatining hozirgi nazariyasi va amaliyotida o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish va olib borishining ko'plab variyantlari mavjud. Har bir muallif hamda amaliyotchi pedagogik jarayonga o'zining individual ulushning qo'shami. Lekin ko'p texnologiyalar o'z maqsadlari, mazmuni, qo'llanadigan metodlari va vositalari bo'yicha yetarlicha ko'p o'xshashliklarga ega va ularni shu umumiyligi begilalariga ko'ra tasnif qilish mumkin. Pedagogik texnologiyalarni quyidagi belgilari ko'ra tasnif qilinadi:

Qo'llash darajasiga ko'ra;

Falsafiy asosi bo'yicha;

Asosiy rivojlanishtiruvchi omillar bo'yicha;

O'zlashtirish kontsepsiysi bo'yicha;

Shaxsiy belgi-sifatlariga ko'ra yo'nalganligi bo'yicha;

Mazmun xususiyatlari bo'yicha;

Boshqaruv turi bo'yicha;

Bolaga yo'ndashuv bo'yicha;

Ko'p qo'llaniladigan metodlar bo'yicha;

Ta'lim oluvchilar toifalar bo'yicha;

Ta'limga zamonaviy yondashuv ta'lim jarayonini aniq vositalar yordamida samarali boshqarish va qo'yilgan o'quv maqsadlariga muvaffaqiyatli erishish natijalarini kafolatlaydi. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv –vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimdir. Ta'lim texnologiyalari pedagogik faoliyatning ma'lum sohasini qamrab oladi. Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish o'quvchilarning bilim faoliyatini mavzu bo'yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o'qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim sifat samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuv - o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, ma'lum pedagogik nazariyaga asoslangan, u yoki bu tasnifga tegishli bo'ladi. Ularning samaradorligi to'g'risida fikr yuritilganda o'qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo'naltira oladigan, o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatini ta'minlash barcha ta'lim muassasalarining oldiga qo'yilayotgan maqsadga nechog'lik erishilayotganini ko'zda tutish kerak. Yoxud o'qitish metodlari bevosita ta'lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyasidir.

Boshlang'ich sinflarda "O'qish" darslarida matnlar berilgan bo'lib, shulardan biri "Alisher Navoiy" matnidir. Matn badiiy va ilmiy uslubda berilgan. Mashq shartida matnlarni taqqoslab, ularning o'xhash va farqli tomonlarini aniqlash topshirilgan. Mazkur matnni "Aqliy hujum" metodi yordamida o'rganish ko'zlagan maqsadga erishish imkoniyatini yaratadi. Bu metod asosida matn bilan bir necha bosqichda olib boriladi.

bosqich. O'quvchilarni mavzuni tushunishga tayyorlash. O'tgan mashg'ulotlarda berilgan nutq usullariga oid ma'lumotlar esga olinadi va takrorlanadi, har bir nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlari yodga olinadi. Chunki matnlarni taqqoslash uchun o'quvchilarda nutq uslublariga oid ma'lumotlar yetarli bo'lishi kerak. Nutq uslublariga oid bilimlar yodga olingandan so'ng har ikki matn o'quvchilar tomonidan mustaqil o'qib chiqiladi. O'quvchilar matn mazmunini tushunishga harakat qiladilar.

bosqich. Berilgan matnlarning o'xhash tomonlarini aniqlash. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga quyidagi savolni beradi? Har ikki matn qaysi jihatdan bir- biriga o'xshaydi? O'quvchilar mazkur savolga shunday javob beradilar:

har ikki matn ham Alisher Navoiy haqida:

mantning mazmuni bir xil:

har ikki matndan ham Navoiy ijodi haqida fikr bildirilgan:

har ikkala matnda ham shoirning ustozlari nomlari keltirilgan:

Navoiyning turkiy tilda ijod qilganligi aytilgan:

Navoiyning jahonga tanilgan shoir ekanligi aytilgan

Forsiy shoirlarning Navoiy ijodiga munosabati ifodalangan.

O'qituvchi o'quvchilarning Navoiy ijodiga umumlashtiradi va o'z munosabatini bildiradi.

bosqich. Har ikki matn asosida badiiy va ilmiy uslubga xos xususiyatlarni aniqlash. Bu bosqichda har bir uslubning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Birinchi matnda badiiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: tasviriy ifoda

(zanjirband she'r) ko'chma ma'noli so'zlar (she'riyat osmoni, yulduzlarga hira tortdi, shuhuratiga soya soldi). Ikkinci matnda ilmiy uslubga xos quyidagi xususiyatlar qo'llangan: raqamlar (1441 yil tug'ilgan, XV asr 60-yillar), aniq dalillar Yevropa va Osiyo davlatlarini, Nizomiy Ganjaviy, Sadiy, Hofiz Sherazi, Abdurahmon Jomiy kabi tarixiy shaxs nomlari, A.Jomiyning Navoiy haqidagi fikri keltirilgan. "Alisher Navoiy" matni shu metod yordamida o'rganilsa, o'quvchilar matn mazmunini yaxshiroq anglaydilar ularning mazmuniga chuqurroq kirib boradilar matnlarni qiyoslash orqali ularning mohiyatini teran idrok etadilar va interfaol metodlar o'quvchilarni fikrlashga, darslarda faol qatnashishga, darslarda faol ishtirokchi bo'lishiga o'rgatadi. Shunday qilib, yuqoridaq interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish asosida ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashish dasturi amal bo'lib qoladi.

### **Foydalaniman adabiyotlar**

1. Tolipov O. Umumiy pedagogika Toshkent: 2007-y.
2. Yo'ldashev O. Pedagogika Toshkent: 2008-y.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. Toshkent: 2007-y.
4. Daminov T, Adambekova T. O'yin mashg'ulotlari. Toshkent: 1993-y
5. R. Mavlonov, O.Toraeva – Pedagogika – Toshkent – O'quvchi – 2001
6. J.Yo'ldoshov, S.Usmonov – Pedagogik texnologiya asoslari – Toshkent - 2004

